


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60410800- Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim
yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
Toshkent moliya instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1 60410800 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	7
2.4. Kvalifikatsiya.....	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	
Kelishuv varag'i	

1. 60410800- Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari (sillabus)ni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) – "Iqtisod" ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u davlat statistika tashkilotlari, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar echimlarini statistikaning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar bilan bog'lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, uning viloyat statistika boshqarmalari, tuman statistika bo'limlari va boshqalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy

tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *tashkiliy-boshqaruv.*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar echimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini statistik baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha statistik hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini statistik baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarini zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarini zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60410800-Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish indekslarini aniqlay olishi;
- statistik tahlil natijalariga asoslangan holda xulosalar chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish va mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- tovarlar va xizmatlarni iste'mol va jamg'arma jarayonlarini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini bayon etish;
- tarmoqlararo balans tuzish sxemasi tenglamasi, to'g'ri va to'la xarajatlar koeffitsientlari va ularni hisoblash;
- umumiy indekslarning o'rtacha va agregat shakllarini hisoblash;
- iqtisodiyot samaradorligi ko'rsatkichlarini indekslar tizimi yordamida tahlil qilishi kerak.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- aholi o'rtasida ijtimoiy, demografik muammolar bo'yicha ro'yxatlar, maxsus kuzatishlar o'tkazish;
- ijtimoiy munosabatlarning shaxs rivojlanishiga ta'sirini statistik o'rganish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatning xarakteri va sharoitlarini statistik o'rganish;
- statistik tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyatlarini yoritish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish indekslarini aniqlash;
- tashqi savdo aylanmasi indekslarini hisoblash;
- umumiy va o'rtacha indekslar;
- mamlakatlararo mehnat resurslari migratsiyasini aniqlashni;
- mamlakatlarning iste'mol darajalarini hisoblashni;
- dunyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari va ularni o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni;
- o'zaro taqqoslashning asosiy tamoyillari;
- dunyo mamlakatlarida aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish ko'rsatkichlari;
- dunyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari;

- iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini turli tamoyillari, ularning tuzilishi va bog'liqligi;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish;
- bozor infratuzilmasi shakllanishini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimini tuzish;
- statistikada qo'llaniladigan tasnif va guruhlashlar;
- mamlakat iqtisodiyotini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini qo'llay bilishi;
- statistikaning tashkil qilinishi;
- iqtisodiy indekslarning turlari va tasnifi;
- jahon mamlakatlarining YaIM ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash;
- dunyo mamlakatlarida pul-kredit tizimini statistik o'rganish;
- ommaviy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni miqdor va sifat jihatidan statistik baholash;
- makrodarajadagi iqtisodiy faoliyatning hozirgi holatiga ta'sir etuvchi omillar asosida kelajakni prognozlashni bilishi;
- respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbolini aniqlashni;
- aholi iste'molini statistik tahlil qilishni;
- aholi pul daromadlari va uning tarkibini statistik o'rganishni;
- aholi jamg'armalarini statistik tahlil qilishni;
- guruhlashlarni;
- tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, daromadlarini hosil qilish haqida statistik hisobot tuzishni;
- iste'mol narxlari indeksleri va inflyatsiya darajasini aniqlashni;
- ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblashni bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zaruriy tayanch bilim va ko'nikmlarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60410800 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari
1.00	Majburiy fanlar
1.01	O'zbekistonning eng yangi tarixi
1.02	Falsafa
1.03	Iqtisodiyot nazariyasi
1.04	Matematika (Iqtisodchilar uchun matematika, amaliy matematika)
1.05	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar

1.06	O'zbek(rus) tili
1.07	Xorijiy til
1.08	Dinshunoslik
1.09	Mikroiqtisodiyot
1.10	Statistika nazariyasi
1.11	Makroiqtisodiyot
1.12	Moliya asoslari
1.13	Xalqaro statistika
1.14	Ekonometrikaga kirish
1.15	Byudjet hisobi
1.16	Ijtimoiy statistika
1.17	Mehnat bozori statistikasi
1.18	Investitsiyalar statistikasi
1.19	Iqtisodiy tahlil
1.20	Pul va kredit
1.21	Moliya bozori statistikasi
1.22	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash
1.23	Tarmoqlar statistikasi 1
1.24	Iqtisodiy statistika
1.25	Tarmoqlar statistikasi 2
1.26	Tadqiqot usullari va ko'nikmalari
2.00	<i>Tanlov fanlar</i>
2.00	<i>Tanlov fanlar</i>
	Jami
	Malakaviy amaliyot
	Yakuniy davlat attestatsiyasi
	Jami
	Hammasi

2.4. Kvalifikatsiya: Statistika, Iqtisodchi

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri statistika, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
60410800 -Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim
yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“_____” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K. Sharipov, Toshkent moliya instituti rektori T. Teshabayev, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi” direktori B. Begalov, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti” direktori B. G‘oyibnazarov, “Toshkent shahar statistika boshqarmasi” boshlig‘i L. Mirsoatov birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejaları mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60410800 -Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

Yuqoridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.


Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida” 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.


Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy

kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori  K. Sharipov

Toshkent moliya instituti rektori  T. Teshabayev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori  B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori  B. G'oyibnazarov

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i  L. Mirsoatov